



UDK:811.11

**Baxora ERGASHOVA,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi*  
E-mail: [ergashova.baxoram@gmail.com](mailto:ergashova.baxoram@gmail.com)

*O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti dekani, f.f.n., dotsent U.Yo'ldoshev taqrizi asosida.*

### ITALYAN VA O'ZBEK TILLARI LEKSIKASIDA SINONIMLIK HODISASI

Аннотация

Ushbu maqolada italyan va o'zbek tillari leksikasining umumiy va o'ziga xos jihatlari tadqiq qilinadi. O'zbek tilidagi so'zlarning sinonimlik xususiyatlari, ularning matnlarda qo'llanilishi, ijobiy va salbiy mazmunlarni ifodalashi taqqirot ishining bir tomoniga qo'yilsa, ikkinchi tomonda italyan tilida sinonimlarning hosil bo'lishi, qo'llanilishi va ahamiyati tavsiflanadi. Italyan va o'zbek tillari bir til oilasiga mansub bo'lmaganligi sababli taqqirot ishi, asosan, chog'ishtirma va statistik metodlar yordamida olib boriladi.

**Kalit so'zlar:** Sinonimiya hodisasi, sof sinonimlar, dominant so'z, kontekstual sinonimlar.

### THE PHENOMENON OF SYNONYMY IN THE LEXICON OF THE ITALIAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article includes the analysis of the general and specific aspects of the lexicon of the Italian and Uzbek languages. Synonymous features of Uzbek words, their use in texts, expressing positive and negative meanings are placed on one side of the research work, and on the other side, the formation, use and importance of synonyms in Italian are described. Since Italian and Uzbek languages do not belong to the same language family, the research work is mainly conducted using cross-sectional and statistical methods.

**Key words:** The phenomenon of synonymy, pure synonyms, dominant word, contextual synonyms.

### ФЕНОМЕН СИНОНИМИИ В ЛЕКСИКОНЕ ИТАЛЬЯНСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются общие и специфические аспекты лексики итальянского и узбекского языков. Синонимические особенности узбекских слов, их употребление в текстах, выражающие положительные и отрицательные значения, помещены с одной стороны исследовательской работы, а с другой стороны описываются образование, употребление и значение синонимов в итальянском языке. Поскольку итальянский и узбекский языки не принадлежат к одной языковой семье, исследовательская работа ведется в основном с использованием перекрестных и статистических методов.

**Ключевые слова:** Феномен синонимии, чистые синонимы, доминирующее слово, контекстуальные синонимы.

**Kirish.** Italyan tili Hind-Yevropa tillar oilasining roman tillari turkumiga kirib, uning paydo bo'lishi, rivojlanishi bevosita lotin tili bilan bog'liq sanaladi ya'ni bugungi kunda italyan tili leksikasining asosiy qismini lotin tilidan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi. Masalan: rosa-atirgul, aurora-tongi shafaq, mare-dengiz, aquila-burgut, luna-oy kabilar bo'lsa, ba'zi so'zlar esa, fonetik o'zgarishlar bilan o'zlashtirilgan: pater(l)-padre(i)-ota, mater(l)-madre(i)-ona, historia(l)-storia(i)-tarix. Italyan tili o'zbek tilidan grammatik, leksik, sintaktik jihatdan ancha farq qiladi. Masalan, o'zbek tilida gap qurilishi "ega+ikkinchi darajali bo'laklar+kesim" ko'rinishida bo'lsa: "Men har kuni maktabga boraman"(ega+hol+hol+kesim), italyan tilida "ega+kesim+ikkinchi darajali bo'laklar" tartibida keladi: "Io vado a scuola ogni giorno" (Soggetto+predicato+complimento). Ikki tilning bu kabi o'ziga xos xususiyatlarini boshqa turkumlar va bo'laklarda ham uchratish mumkin. Sinonimiya hodisasi har ikki o'rganilayotgan tilde mavjud bo'lib, ushbu taqqirot ishida ularning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib chiqamiz. Sinonim atamasi yunonchadan olingan bo'lib, syn-o'xshash va ónoma-ot degan ma'nolarni anglatadi [dal gr. synónymos (lat. tardo synónymos), comp. di syn- "sin-" e ónoma, ónyma "nome"] hamda bir ma'noni bir nechta so'z orqali ifodalash ma'nosini bildiradi. "Sinonimlar ma'nosining birxilligi ularning o'zaro farqli xususiyatlarga ega bo'lishini inkor

etmaydi. Aksincha, tilda bir ma'noni ifodalash uchun bir necha so'zning mavjudligi sinonimlarning bir-biriga har jihatdan to'la mos kelmasligini, ulardan har biri o'ziga xos belgi-xususiyatlarga egaligini ko'rsatadi. Sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar qaysidir jihatlari bilan bir-birlaridan farqlangani uchun tilda alohida leksik birlik sifatida yashash imkoniyatiga ega bo'ladi"[2], akademik Hojiyevning sinonimlar to'g'risida keltirib o'tgan mazkur ta'riflari, keying o'rinlarda aniq misollarda o'z isbotini namoyish qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tilshunoslik sohasida sinonimiya hodisasini o'rganish uzoq davrlarga borib taqaladi. Birinchilardan bo'lib, sinonimlar to'g'risida Aristotel o'z asarlarida ilmiy va falsafiy fikrlarni keltirib o'tgan: Sinonimlar umumiy nom va xususiyatga ega bo'lgan narsalardir. Tilshunoslik sohasida sinonimiya so'z va iboralar ma'nosini o'rganuvchi bo'lim bo'lgan semantika doirasida o'rganiladi. Muhim jihatlardan biri funksional sinonimiya bo'lib, u sinonimlarning turli kontekstlarda bir-birini qanday o'zgartirishi va o'zgarishi mumkinligini tekshiradi. Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida sinonimlar o'zgarishlarga uchraydi. Misol uchun, sinonimiya ijtimoiy, madaniy yoki texnologik o'zgarishlar tufayli o'zgarishi mumkin. Vilgelm fon Gumboldt tizim sifatida til va turli lingvistik elementlarning, shu jumladan sinonimlarning o'zaro ta'siri haqidagi fikrlari bilan mazkur taqqirot obyektiga hayotiylik bag'ishlaydi. Keyinchalik rus olimlaridan V.Kuznesev,

Yu. Apresyan, L. Baranova va boshqa bir qator olimlar so'zlardagi semantik maydon, unda sinonimlarning ishtiroki va tahlili xususida ko'plab tadqiqot ishlarini olib borishadi.

O'zbek tilshunosligida sinonimik qator va ularning qo'llanilish doirasi xususida A. Navoiy o'zining "Muhokamatul lug'atayn" asarida ma'lumotlar keltirib o'tadi. Keyinchalik bu mavzu ko'plab tadqiqotchilar tomonidan umumiy va tavsifiy o'rganilgan bo'lib, ayniqsa o'tgan asrning 50-70 yillarida S. Usmonov, N. Rajabov, U. Tursunov, A. Hojiyev, S. Isamuhamedova kabi tilshunoslar tadqiqotlarining asosiy mavzusiga aylangan. Qolaversa, professor S. Karimov ham "O'zbek tilining badiiy uslubi" nomli monografiyasida sinonimlar va ularning darajalanishi to'g'risida ilmiy asoslarga ega qator fikrlarni keltirib o'tadi. O'zbek tilshunosligida sinonimik qatorlar anchayin batafsil va ziyraklik bilan tavsiflangan lug'atni A. Hojiyev yaratgan. Uning "O'zbek tili sinonimlari izohli lug'ati" (Toshkent: O'qituvchi, 1974)da o'zbek tilidagi sinonimlarni izohlashda mazkur parametrlarning aksariyati o'z aksini topgan [1].

Italyan tilshunosligida XX asrning mashhur tilshunoslaridan biri Tullio De Mauro semantikada sinonimiya hodisalarini eng ko'p tadqiq qilgan olimlardan biri sanaladi. B. Migliorini, A. Monti, F. Lo Piparo, C. D'Angelo singari tilshunoslar sinonimlarni stilistik va morfologik tahlil etgan holda, bir nechta qo'llanmalar yaratishadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot ishida ikki bir-biridan turkum va oila jihatdan farq qiluvchi tillardagi sinonimiya hodisasini ko'rib chiqish, tahlil qilish uchun tavsifiy, chog'ishtirma va statistik tahlil metodlaridan keng foydalaniladi. Chog'ishtirma metod orqali sinonimlarning strukturaviy va ma'nosiga ko'ra turlari kengroq yoritib beriladi. Masalan, italyan tilida sinonimlar ma'no jihatdan asosan uch guruhga ajratiladi: Asl sinonimlar (sinonimia pura), maxsus sinonimlar (sinonimi specialis) hamda qisman sinonimlar (sinonimi parziali). O'zbek tilida esa, sinonimlar gaplarda qo'llanilishiga ko'ra ma'no sinonimlari, nutqiy sinonimlar, uslubiy sinonimlar kabi turlarga ajratilsa, tuzilishiga ko'ra esa, affiksial, sodda, juft, takror, qo'shma, aralash, so'z birikmalari sinonimiyasi, gap sinonimiyasi kabi turlarga ajratiladi. Biz chog'ishtirma metod orqali ushbu ikki tildagi sinonimlarning turlari, yasalishi va qo'llanilishi yanada tushunarli va aniqroq yoritib beramiz. Tadqiqot ishida tavsifiy metoddan ham keng foydalaniladi, ya'ni bir tildagi sinonimiyaning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash, tasniflash maqsadida ushbu metod qo'llaniladi.

**Tahlil va natijalar.** Ikki leksema bir xil ma'noga ega bo'lsa, sinonim bo'ladi. Aslida, ko'pchilik nutq uslublariga xos bo'lgan polisemiya tufayli leksemalar, to'liq sinonimiya (= to'liq semantik ekvivalentlik har doim bir-biri bilan almashtirilishi mumkin bo'lgan ikkita so'z o'rtasida hosil bo'lib, o'rin almashishganda ham, gapning mazmunini o'zgartirmaydi), qisman sinonimiyaga (masalan: tra ~ fra) ajratilishi mumkin, ayniqsa, bir ma'noli leksemalar hamda tor doiralarda qo'llaniluvchi atamalar uchun aynan to'g'ri tushadigan sinonimlarni topish juda murakkab sanaladi. Shuning uchun sinonimiya ko'pincha qisman bo'ladi (bu leksemalar orasida asosiy ma'noni yoritish maqsadida qo'llaniladi) yoki kontekstual bo'lib, so'zlar faqatgina ma'lum kontekstda bir-birini almashtirish mumkin. Masalan: ricco-boy, benestante-o'ziga to'q: Lo zio di Anvar è ricco-Anvarning amakisi boy; Lo zio di Anvar è benestante-Anvarning amakisi o'ziga to'q. Har ikkala gap ham Anvarning amakisi kambag'al emasligini tasdiqlaydi, ammo ba'zan o'ziga to'q sifati, boy sifatiga qaraganda pastroq darajani ko'rsatadi: kambag'al-o'rtahol-o'ziga to'q-boy. Sinonimlar har doim bir xil grammatik kategoriya tegishli bo'ladi: velocemente/celermente (tezda, zudlik bilan) ravish so'z turkumiga kirs, dire/riferire (demoq, ifodalamoq) fe'l so'z turkumiga kiradi. Ikki turkum bir-biriga sinonim bo'la

olmaydi. Sinonimlar turli ijtimoiy qatlamlar va til qatlamlariga qarab o'zgarishi mumkin (til registrlari), masalan, fandonia, bugia, palla so'zlarining barchasi umumiy yolg'on tushunchasini ifodalaydi, ammo turli ijtimoiy qatlamlarda turlicha foydalaniladi. Fandonia-ertak, cho'pchak ma'nosini ifodalab, ko'proq yuqori qatlam tomonidan qo'llaniladi, bugia-yolg'on ma'nosini ifodalaydi va umumiy so'zlashuvda, adabiy nutqda keng qo'llaniladi, palla esa lof, uydirma ma'nolarini ifodalab, odatda xalq tilida yolg'on so'zi o'rnida keladi.

Sinonimlarning qisman va to'liq holatda bir-birini to'ldirib kelishi haqida yuqorida fikrlar keltirib o'tdik va hozir buni abitare va vivere fe'llari misolida ko'rib chiqamiz. Abitare-istiqomat qilmoq, yashamoq, vivere-yashamoq ma'nolarini ifodalab, ular "abita in campagna"-qishloqda yashaydi va "vivere in campagna"-qishloqda yashaydi gaplarida to'liq sinonim bo'lib keladi, ammo "vive tranquillamente-tinch yashaydi", "vive bene-yaxshi yashaydi" kabi gaplarda vivere fe'lining o'rniga abitareni qo'ya olmaymiz chunki abitare ko'proq istiqomat qilmoq ma'nosini ifodalaydi va uning qo'llanilish darajasi cheklangan.

Bundan tashqari, sohaviy sinonimlar (sinonimi settoriali) ham mavjud bo'lib, ular faqatgina ma'lum bir sohaga tegishli so'zlar sanaladi: "mal di testa (so'zlashuvda) - emicrania (tibbiyotda)" - bosh og'rig'i ma'nosida, "casa (so'zlashuvda) - abitazione (rasmiiy uslubda)" - uy, yashash joyi ma'nolarida turli nutq uslublarida qo'llaniladi.

Italyan tilida ham boshqa tillarda bo'lgani kabi turli shevalar mavjud bo'lib, ular fonetik, leksik, semantik jihatdan bir-birlaridan farq qiladi. Aynan o'sha shevalardagi so'zlarda ham sinonimiya hodisasi ko'zga tashlanadi. Masalan, adabiy tildagi avere fretta-shoshilmoq birikmasi Toskana shevasida avere furia shaklida kelib birikmaning ma'nosini kuchaytirib keladi. Aslida, furia so'zining lug'aviy ma'nosi darg'azab bo'lmoq, jahli chiqmoq kabi tarjimalarni beradi. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarining nomlari hududlararo o'zgarishlarga uchrab boradi: adabiy tildagi "fagiolini"-loviyalar so'zi Veneto shevasida "tegoline" va Lombardiya shevasida "cornetti" shakliga o'zgaradi.

**Xulosa va takliflar.** Italyan tili leksikasi o'ziga xos qiziqarli tadqiqot obyekti hisoblanib, unda o'rganilishi foydali bo'lgan mavzular talaygina. Italyan va o'zbek tillari leksik, semantik, grammatik, fonetik jihatdan bir-biridan ancha farq qilsa-da, ularni qiyosiy tadqiq qilish ushbu tillar rivojida amaliy ahamiyat kasb etadi. Ikki tildagi sinonimiya hodisasini o'rganish jarayonida shunga amin bo'ldikki, ikki oilaga mansub bo'lgan tillar aslida, tarixan bir-biriga o'xshash rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi, dunyo tilshunosligida amalga oshirilgan har qanday yangiliklar ularga ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Qadimgi hind tilshunoslari, Aristotel, Zamaxshariy, A. Navoiy, rus tilshunoslari va yuqorida nomlari keltirilgan qator o'zbek tilshunoslari tomonidan tadqiq etilgan sinonimiya hodisasi hamon yangi bilimlarni egallashda asos bo'lib kelmoqda.

"Italyan va o'zbek tillari leksikasida sinonimlik hodisasi" mavzusidagi ushbu tadqiqot natijalaridan kelib chiqib bo'lajak tadqiqotchilarga bir qancha tavsiyalar berilishi mumkin. Birinchidan:

Italyan tilida sinonimlarni tadqiq etish ushbu tilni o'rganayotgan auditoriya uchun juda muhim ma'lumotlarni yetkazish imkonini beradi, ya'ni ular o'z lug'atlaridagi sinonimik qatorlarni kengaytirish orqali og'zaki va yozma muloqotda takrorlardan holi bo'lishga erishadilar. Ikkinchidan: Ilmiy izlanuvchilar tomonidan italyan va o'zbek tillarida sinonimlarning tor doirada va keng doirada qo'llanilishini o'rganish ahamiyatli sanaladi. Bu esa, ikki tilda yaratiladigan sinonimik lug'atlar uchun asos vazifasini bajaradi, yangi tadqiqotlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Nemis yozuvchisi Gyote ta'biri bilan aytganda, "Kimki chet tillarini bilmas ekan, demak o'z tili haqida ham yetarli bilimga ega emasdir". Shunday ekan, o'z ona tilimizni

boshqa tillar bilan qiyoslab o'rganish, nafaqat, o'z tilimiz balki, o'rganilayotgan chet tili rivojida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati: / N.Mahmudov tahriri ostida. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
2. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
3. Dizionario dei sinonimi e contrari, Daniela Ratti: Zanichelli, 2012.
4. Italiano facile, manuale-Novara, 2009.
5. Parole, Serena Ambroso- Roma: Bonacci Editore, 2022.
6. [www.treccani.it](http://www.treccani.it)
7. <https://aulalettere.scuola.zanichelli.it/>
8. <https://dizionari.repubblica.it/>